O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING JIZZAX
VILOYATI BOSHQARMASI

130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov ko‘chasi, 1-uy, Tel/Faks: 71-203-11-09, E-mail: jizzah_expertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Safarov Bobir Sabirjanovich
Sana: 30-09-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

260193 - SONLI

Obyekt nomi: Ajratilgan yer maydonida oshxona, kafelar, savdo uylari binolarini loyihalash	
Buyurtmachi:	ISLAMOV G‘AYRATJON ISAKOVICH
Bosh loyihachi:	"D-INEX" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tender asosida.
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	085455

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Islamov G‘ayratjon Isakovich tomonidan 10-fevral 2025-yilda tasdiqlangan Loyiha topshirig’i.

1.2. Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasi tomonidan 16.01.2025 yilda berilgan № 1726-1726280-211444 -sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.3. . Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasi loyiha-smeta xujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organing 01-07-2025 yildagi loyiha smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha 197320484 -sonli xulosasi.

1.4. Davlat ekologik ekspertiza markazi Toshkent shahar filialining 04.03.2025 yildagi 01-02/14-4494-sonli Davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

1.5. “GEODELTA” MCHJ tomonidan 2025 yilda berilgan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari bo‘yicha bajarilgan xulosasi.

1.6. “Toshkent shahar suv ta’minoti” AJ tomonidan 14.03.2025-yil tasdiqlangan №270/4-680-sonli texnik shart.

1.7. “Hududgaz Poytaxt” GTF tomonidan 24-iyul 2025-yil №177349 tasdiqlangan tabiiy gaz bilan gazlashtirish loyihasini ishlab chiqish va gazlashtirishga texnik shart.

1.8. "TOSHKENT SHAHAR ELEKTR TARMOQLARI" MCHJ tomonidan 13.03.2025 yil №2628010444 tasdiqlangan elektr tarmoqlariga ulanish uchun texnik shart

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Islamov G‘ayratjon Isakovichning “Shaffof qurilish” MAT orqali 06.08.2025 yildagi 085455-sonli murojaati.

2.2. Ishchi loyiha tarkibiga ko‘ra ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari elektron tarzda taqdim qilingan.

2.3. Islamov G‘ayratjon Isakovich tomonidan“Shaffof qurilish” MATga yuklagan xati.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. **Loyiha bosh rejasi.**

Toshkent shahri, Olmazor tumani, “Chinniobod” MFY hududida (LOT raqami: 11805831/ Yer uchastkasi: MG1726280060/2) ofis binosi qurish bosh rejasi (GP) bo'limi Toshkent viloyati qurilish va uy joy komunal xo'jaligi boshqarmasi tomonidan berilgan 16.01.2025-yildagi, 1726-1726280-211444-sonli ART asosida, 1:500 masshtabdagi topografik xaritada, barcha sanitariya talablariga rioya qilgan holda bajarilgan.

Hudud to'rt tomondan quyidagilar bilan chegaralanadi:

- Shimolda - savdo shaxobchalari bilan;
- Janubda - yakka tartibdagi turar-joy binolari bilan;
- Sharqda - ko’p kvartirali turar-joy binolari bilan;
- G'arbda - ko’p kvartirali turar-joy binolari va qozonxona bilan.

Bosh reja ishchi loyihasida quyidagi bino va inshootlar va ish turlari aks etgan:

Hududda mavjud bino va inshootlar tarkibi:

- Mavjud bino,
- Avtoturargox.

Hududda qurilayotgan yangi bino va inshootlar tarkibi:

- Offis binosi,
- Transformator o'rnatish uchun maydon.

Qurilish uchun ajratilgan hududdagi barcha injenerlik tarmoqlari va irregasiya inshootlari mahalliy mutasaddilar ishtirokida ko'chirish inobatga olingan. Qurilish boshlanishidan avval hudud yuzasi tekislanadi. Hudud obodonlashtirildi, yo'llar va piyodalar o'tish yo'llari qattiq sirtga ega. Qurilish maydonining vertikal rejasi binolarni mavjud relyefga nisbatan to'g'ri joydashtirish, yashil maydonlarni, sug'orish imkoniyatini, shuningdek, chiqindilarni va yomg’ir va qor suvlarini hudud yuzasidan olib chiqilishi ta'minlandi.

Yo'llar, piyodalar yo'llari yo’lak toshi(bruschatka (temirbetaon asos bilan)) qoplamasi bilan ta'minlangan. Shuningdek hudud ko'p yillik manzarali daraxtlar va yashil maysalar bilan ko'kalamzorlashtiriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning hududda erkin, to'siqsiz harakatlanishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan hamda maxsus belgi asosida avtoturargoxda o'rin ajratilgan.

Yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida hududda quyidagi chora tadbirlar amalga oshirilgan:

1. Qurilayotgan binolar yaqinida yong'inga qarshi shit joylashtirilgan;
2. Qurilayotgan binolar yaqinida yong'inga qarshi suv gidrantlari joylashtirilgan;
3. O't o'chirish mashinalarining barcha binolar yaqiniga borishi uchun qattiq qoplamali yo'llar bilan ta'minlangan.

Taqdim etilgan chizmada ishlab chiqilgan binolar hamda inshootlar loyihalarining bog'lanish chizmasini elektron formatda hududdagi geodezistga beriladi. U elektron fayldan foydalanib bosh rejadagi bino va inshoot o'qlarini koordinatalarini yechib oladi. Shu ma'lumotlarni u elektron taxeometr yoki boshqa elekton uskunalarga kiritib loyihani asl holga ko'chirishi (razbivka) mumkin. Buyurtmachining talabi va ishtirokida, Favqulodda vaziyatlar vazirligi hududiy boshqarmasi mutasaddilari bilan birgalikda hudud o'rganilib, hududning qurilish zichligi yuqoriligi inobatga olib loyihadagi bino qurilishiga ruxsat berilgani (ijobiy kengash xulosasi asosida), shuningdek hududning butun yuzasi qurilish osti maydoni sifatida foydalanilgani xolida, binoga yaqin bo'lgan hududlarni (o'zga shaxsga tegishliligida nizolar mavjud emas) obodonlashtirish ko'zda tutilganligi ma'lum qilingan.

Moliyaviy ta'minlanganlik miqdorining kamligi sababidan hududda yuqorida keltirilgan tadbirlardan boshqa ish hajmlari qurilishning keyingi bosqichida amalga oshirilishi inobatga olinib, loyihada kiritilmasligi ma'lum qilingan.
Ajratilgan yer hududi balansi:
- Qurilish hududi - 699.0m2;
- Bino osti maydoni - 549.96m2;
- Yo'l va yo'laklar maydoni - 110.42m2;
- Ko'kalamzorlashtirilgan maydon - 38.62m2;
- Hududdan tashqari ko'kalamzor maydon - 308.88m2

3.2. **Qurilish uchastkasining xususiyatlari.**

Qurilish-iqlim zonasi - II.
Hisoblangan qishki tashqi havo harorati - -16ºC.
Normativ shamol bosimi - 0,38 kPa.
Normativ qor yuki - 0,50 kPa.
Tuproq sharoitini hisobga olgan holda qurilish maydonchasining seysmikligi 7 ballni tashkil qiladi.

Konstrursiyaviy yechimlar.

Binoning konstruktiv tizimi — seysmik ta’sirlarga bardosh beruvchi g‘ishtli plombali monolit temir-beton karkas qabul qilindi.
Poydevorlar - to'r bilan mustahkamlangan B20 markali betondan yasalgan monolitik temir-beton ustunli va chiziqli poydevorlar.
Devorlari M50 qorishma bilan M75 g'ishtdan yasalgan, tashqi devorlari 380 mm qalinlikda. Issiqlik izolyatsiyasi zichligi 120 kg/m³ bo'lgan 50 mm qalinlikdagi bazalt mineral plitalari.
Monolitik ustunlar - 400x400 mm kesimli B25 betondan tayyorlangan monolitik temir-beton.
Monolitik rigel - 400x400mm (h), 400x600mm (h) kesimli B25 betondan yasalgan.
Pardevorlar – armaturali setkalar orqali mustahkamlangan 120mm qalilikda g’isht.
Lintellar(peremichka) - 400x400 mm (h) kesimli B20 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-beton.
Zamin va tom 200 mm qalinlikdagi B25 markali betondan tayyorlangan monolitik temir-betondir.
Zinalar va maydonchalar B25 markali betondan tayyorlangan monolitik temir-betondir.
Tom - tekis, yumshoq, kombinatsiyalangan tom. Issiqlik izolyatsiyasi zichligi 160 kg/m³ bo'lgan 120 mm qalinlikdagi bazalt mineral plitalari.

Arxitekturaviy yechimlar.

Savdo va xizmat ko'rsatish binosi umumiy o'lchamlari 12,40 x 40,6 m bo'lgan ko'pburchak shaklidir. Bino ikki qavatli, 1-qavat balandligi poldan 3.90m, 2-qavat balandligi poldan 2.80m.
Pollar - 10 mm qalinlikdagi keramik plitkalar; Zinapoyalarda, maydonchalarda va koridorlarda 600x600x20 mm marmar plitalar.
Deraza bloklari maxsus tayyorlangan, metall va PVX profillardan tayyorlangan, bitta kamerali shisha bilan jihozlangan.
Tashqi eshik bloklari maxsus tayyorlangan va pishirilgan shishadan qilingan.
Ichki eshik bloklari MDF panellaridan asosida ishlangan.

Tashqi pardozlash.

Poydevor va yon qismlari oddiy gipsli, granit plitkalar bilan qoplangan.
Tashqi devorlar - barcha o'qlarda sement-qum ohak bilan yaxshilangan gips. Travertin uchun sirt tayyorlash bilan.
Mas'uliyat toifasi - III.
Chidamlilik darajasi - II.
Yong'inga chidamlilik darajasi - II.

Texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlar

Qurilish maydoni – 537.72m2.

Umumiy maydon – 699m2.

Foydali maydon – 654.04m2.

Qurilish hajmi – 4436.19m3.

Qavatlar soni - 2 qavat.

3.3. **Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay va to‘siqsiz muhit yaratish:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarga qulay va to'siqlarsiz muhit yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-266-son qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturining obyektlarni nogironligi bo'lgan shaxslarning erkin foydalanishi uchun moslashtirish talablari bajarilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. **Elektr tarmoqlari.**

Ushbu ishchi chizmalar tegishli bo‘limlar va qurilish chizmalari asosida ishlab chiqilgan. Loyiha quyidagi ishlar bajarilishini nazarda tutadi: Kuch transformatsiyasi shkaflarini o‘rnatish; Guruh liniyalarini himoya qilish uskunalari bilan jihozlangan elektr shitlarini o‘rnatish; Ishchi va avariyaviy yoritish chiroqlarini svetodiodli lampalar bilan o‘rnatish; Binoga kirishda tashqi himoya yerga ulash (zazemlenie) konturini tashkil etish. Kuch elektr uskunalari Asosiy elektr iste’molchilari — yoritish, texnologik (TX) va isitish-sovitish (OV) uskunalari. Tarmoq kuchlanishi: 380/220 V Elektr ta’minoti kategoriyasi: II toifa O‘rnatilgan quvvat: 238,6 kVt Hisoblangan quvvat: 232,8 kVt Hisoblangan tok: 394,5 A Tashqi tarmoqlardan kabel orqali VRU-1 (vodno-raspredelitelnoe ustroystvo) ga ulanadi. VRU modeli: VRU1-22-53UXL4 VRUdan magistral tarmoqlar quyidagi kabellar orqali amalga oshiriladi: VVGng(A)-LS – 5x95 mm², 5x6 mm², 5x10 mm² Kabelning 5-jili yerga ulash uchun ishlatiladi va polietilen trubalar hamda devor kanallari ichida yotqiziladi. Ichki guruh tarmoqlari Ichki guruh tarmoqlari quyidagi kabellardan foydalangan holda bajariladi: VVGng(A)-LS – 3x2,5 mm² va 3x1,5 mm² Kabellar shtukaturka ostida, plitalar bo‘shlig‘i ichida, PVX gofr trubalarda yotqiziladi.

4.2. **Yong’in xavfsizligi.**

Loyiha bilan 2 qavatli (erto‘la qavatisiz) bino qurilishi rejalashtirilgan. Isitish tizimi – bino yonida joylashgan (bevosita tashqariga chiqish yo‘li mavjud) qozonxona orqali. Tom qismi – yassi. Konstruksiyalarning chegaralangan holatlariga ko‘ra, binoning olovbardoshlik darajasi – II, konstruktiv yong‘in xavfi sinfi – S0., funksional yong‘in xavfi sinfi - 3.1. Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida ko‘zda tutilgan tadbirlar: Yong‘in signalizatsiya va odamlarni yong‘indan xabardor va evakuatsiya qilishni (3-tur) boshqarish tizimlari, chiqish joylarida yong‘in signalizatsiyasining qo‘lda ishlovchi tashvishgohlari, tashqi yong‘in o‘chirishi maqsadlari uchun bino yonida 2 ta yong‘in o‘chirish gidrantlari, evakuatsiya yo‘lidagi eshiklar binodan chiqish yo‘nalishi bo‘ylab ochilishi.

4.3. **Yong'in signalizatsiyasi:**

Yong'in tarqalishining oldini olish uchun yong'in signalizatsiyasi o'rnatilgan. Tizimning qabul qiluvchisi S2000-M yong'in signalizatsiyasi tizimidir. Qabul qiluvchining jihozlari bino xavfsizligini ta'minlash uchun mo'ljallangan. Yong'in boshlanishi haqida signal berish uchun tutun va qo'lda yong'in signalizatsiyasi o'rnatiladi.

Video kuzatuv:

Binoni 24/7 rejimida kuzatib borish uchun videokuzatuv tizimi o‘rnatilmoqda. Videokuzatuv tizimi professional uskunalarga asoslangan: 4MP-30m IP videokamera (yopiq ship), 4MP-10m IP videokamera (yopiq ship) va 3MP-70m IP videokamera (tashqi devor). Kameralardan barcha video signallar 16 portli tarmoq kalitiga va 16 kanalli raqamli video yozuvchisiga yuboriladi raqamli video kuzatuvi, ma'lumotlarni arxivlash va video arxivni ko'rish imkoniyatlariga ega, HDMI bilan 8 TB qattiq disklarni qo'llab-quvvatlaydi. Raqamli video yozuvchisi, tarmoq

kalitlari va CCTV monitorlari 50 Gts chastotada 220V AC quvvat manbaidan quvvatlanadi. UPS-3000VA uzluksiz quvvat manbai ishlatiladi.

4.4. **Ichki suv tarmoqlari va oqova suv.**

Sovuq suv ta’minoti tizimi.

Iste’molchilarning ehtiyojlari uchun suv polipropilen quvurlardan yasalgan, diametri 32x5.4 mm bo‘lgan loyihalashtirilgan kirish quvuri orqali yetkazib beriladi. Xo‘jalik-ichimlik suv ta’minoti tarmoqlari uchun diametri 32x5.4 mm, 25x4.2 mm va 20x3.4 mm bo‘lgan polipropilen quvurlar qo‘llaniladi. Issiq suv. Iste’molchilarning ehtiyojlarini ta’minlash uchun issiq suv elektr suv isitgich yordamida tayyorlanadi. Issiq suv ta’minoti tarmoqlari diametri 20x3,4 mm bo‘lgan shisha tolali kompozit quvurlardan o‘rnatilgan. Kanalizatsiya. Sanitariya-texnika jihozlaridan oqova suvlarni chiqarish uchun loyihada ichki maishiy kanalizatsiyaning o‘z oqimi bilan ishlaydigan tarmoqlarini qurish ko‘zda tutilgan. Kanalizatsiya tarmoqlari uchun diametri 110-50 mm bo‘lgan PVX quvurlari tanlangan.

4.5. **Isitish va shamollatish.**

Isitish va shamollatish. Issiqlik manbai 35kVt quvvatli 3 dona suvli isitish va 1 dona elektr isitish qozonlari. Yoqilg‘i turi gaz va elektr ta’minoti. Binoga talab etilgan issiqlik quvvati 128.3kVt. Isitish tizimi ikki quvurli boshi berk gorizontal loyihalangan. Isitish tizimining quvurlari va armaturalari PPR PN25 turdagi polimer va po‘lat quvurlardan qilingan. Isitish jihozlari bimetal radiator. Bir dona radiator qovkrg‘asining quvvati 166Vt. Bino xonalarida tik havo quvurlari orqali tabiy va kanalli, havo oqimi-chiqaruvchi uskunalar orqali mexanik shamollatish tizimi loyihalangan. Binoda 1 dona kanalli split tizim va 1 dona kalonnali split tizim loyihalangan.

4.6. Qurilish hududiga aloqador barcha muhandislik tarmoqlari hususan, gaz, suv va oqova suv, elektr tarmoqlari ximoya zonalari saqlanishi, qurilish ishlari davomida tegishli tashkilot vakillari ishtiroki ta’minlanishi hamda kelishilishi buyurtmachi tashkilot zimmasidadir.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Davlat ekologik ekspertiza markazi Toshkent shahar filialining 04.03.2025 yildagi 01-02/14-4494-sonli Davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

5.2. “GEODELTA” MCHJ tomonidan 2025 yilda berilgan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari bo‘yicha bajarilgan xulosasi.

5.3. “Toshkent shahar suv ta’minoti” AJ tomonidan 14.03.2025-yil tasdiqlangan №270/4-680-sonli texnik shart.

5.4. “Hududgaz Poytaxt” GTF tomonidan 24-iyul 2025-yil №177349 tasdiqlangan tabiiy gaz bilan gazlashtirish loyihasini ishlab chiqish va gazlashtirishga texnik shart.

5.5. "TOSHKENT SHAHAR ELEKTR TARMOQLARI" MCHJ tomonidan 13.03.2025 yil №2628010444 tasdiqlangan elektr tarmoqlariga ulanish uchun texnik shart

5.6. Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasi tomonidan 16.01.2025 yilda berilgan № 1726-1726280-211444 -sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

5.7. Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasi loyiha-smeta xujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organing 01-07-2025 yildagi loyiha smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha 197320484 -sonli xulosasi.

5.8. Buyurtmachi obyekt loyiha-smeta xujjatlarini tasdiqlashdan oldin barcha mutasaddi va tegishli tashkilotlar bilan kelishishi lozim.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **5 228 781 793** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

881 675 945 so'mga kamaytirilib, **4 347 105 848** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **3 537 667 376** so'm

Asbob-uskunalar: **343 677 131** so'm
QQS: **465 761 341** so'm
6.1. Loyiha-smeta hujjatlari ekspertiza ko’rigiga buyurtmachining **e’tirozlarisiz** taqdim etildi.

6.2. Ekspertiza jarayonida ekspert tomonidan berilgan lokal xulosalardagi izohlar, tavsiya va e’tirozlar buyurtmachi va bosh loyihachi tomonidan qabul qilinib, loyiha-smeta hujjatlariga **tegishli tuzatishlar va qo’shimchalar kiritildi.**

6.3. Buyurtmachi tomonidan smeta qiymati qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) bilan birga **5 228 781, 793** ming so‘m taqdim etilgan. Smeta hujjatlarini o‘rganish jarayonida ish turlari shaharsozlik normalari va qoidalari asosida qayta ko’rib chiqilishi, o’rtacha bozor narxidan baland bo’lgan qurilish materiallari hamda mashina va mexanizmlarning narxlari pasaytirilishi natijasida taqdim etilgan dastlabki narx – **881 675, 945** ming so‘mga kamaytirildi.

6.4. Ekspertiza natijalariga ko‘ra buyurtmachining boshqa harajatlarisiz va qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) bilan birga **4 347 105, 848** ming so‘mni tashkil etadi. Bundan:
– qurilish montaj ishlari (QMI) – **3 537 667, 376** ming so‘mni;
– jihoz, mebel va inventar tashish xarajatlari bilan birgalikda – **343 677, 131** ming so’mni;
– qurilish vaqtida qurilish obektini sug‘urtalashga sarflangan xarajatlar – **0, 00** ming so’ mni;
– qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) 12% – **465 761, 341** ming so‘mni tashkil etadi;
– umumlashtirilgan smeta hisobida ishchi-quruvchilar mehnat sarfi miqdori – – **25 690, 0765** kishi /soat;
– buyurtmachining boshqa xarajatlari narxi – smetaga kiritilmaganligi sababli ko‘rsatilmadi;
Smeta hujjatlari:
Ishchi quruvchilarning o‘rtacha bir soatlik ish xaqi “Qurilish iqtisodiyoti instituti” MChJ tomonidan chop etilgan 2024–yil VI chorak(kvartal) katalog asosida **39 641, 92 x 1,12 = 44 398, 95** so‘m ijtimoiy sug‘urtaga ajratma 12 % qabul qilingan.Qurilish materiallari, asbobuskunalar, moddiy-texnika resurslari va mashina va mexanizmlarning narxlari o’rtacha bozor narxlari asosida ishlab chiqilgan. Qurilish materiallari, asbob-uskunalar, moddiy-texnika resurslari va mashina va mexanizmlarning narxlari o’rtacha bozor narxlari asosida ishlab chiqilgan. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng nazorat o‘lchovi natijalari asosida aniqlanadi. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha vakolatli organlar bilan kelishishi lozim. Buyurtmachi bajarilgan ishlar uchun pudratchiga o‘zaro hisob-kitob qilishda smeta hujjatlarida loyihachi tomonidan qabul qilingan o‘rtacha bir soatlik ish xaqi ko‘rsatkichi – **44 398, 95** so‘m, pudratchining “boshqa xarajatlari” **17, 27 %** ko‘rsatkichi, 1 mash/soat ko‘rsatkichlari va qurilish materiallari va uskuna (jihoz)lar narxlari to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilish tavsiya etilmaydi hamda buyurtmachiga loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin qayta ko‘rib chiqib, qaror qabul qilish tavsiya etiladi.
Pudratchining xarajatlari, transport xarajatlari, qurilish materiallari, konstruktsiyalar, asbob-uskunalar va inventarlarning narxi ma'lumot uchun berilgan, nazorat funksiyasi Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.
Ta’kidlash joizki:
a). Buyurtmachiga loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin quyidagilarni qayta ko‘rib chiqish tavsiya etiladi:
- pudratchi boshqa xarajatlarining aniq sarfi;
- “Qurilishning bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari” ShNK 4.01.16-09 asosida qurilish materiallari (buyumlar, konstruksiyalar) va uskunalarning ishlab chiqaruvchi

zavodlarning ulgurji narxlarini o‘z ichiga olgan hududiy bozorda haqiqatda shakllangan narxlari, shuningdek bevosita ishlab chiqaruvchilardan (yetkazib beruvchi), qurilish materiallari birja va yarmarkalarining byulletenlari, qurilish materiallari va uskunalari yetkazib beruvchi tashkilotlarning narxlarining eng maqbullaridan olinishini;

- ish haqi xarajatlarining pudratchi tashkilotning o‘tgan 12 oydagi o‘rtacha oylik ish haqi darajasidan kelib chiqqan holda bir odam/soat ish haqidan olinganligi.

6.5. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003–yildagi №261 qarori bilan tasdiqlangan “Qurilish ob’ektlari narxini joriy shartnoma narxlarida aniqlash tartibi to‘g‘risida vaqtinchalik qoidalar”ga va ShNK 4.01.16.09 ga binoan qurilishning narxi tavsiyaviydir. Tavsiya etilgan bahoni qabul qilish qarorini buyurtmachi va pudratchi birgalikda qabul qiladilar (ShNQ4.01.16-09, 6-bob. 6.4 -bandi).

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari xamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 17.09.2021 yildagi №579-sonli qarorining 1-ilova 3-bob 29-bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaxarsozlik xujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo‘yicha buyurtmachi xamda loyiha tashkiloti javobgardir".

6.8. Taqdim qilingan lokal hulosaga javob hujjatilaring haqqoniyligi, sifati va ishonchliligi uchun buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

6.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.08.2022 yildagi “Chiqindilar bilan bog’liq ishlarni tashkil etish tizimini isloh qilish bo’yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to’g’risidagi” PF-189-sonli Farmoni 6-bandi ijrosi, 23.11.2023 yildagi “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risidagi” PF-199-sonli Farmoni 15-bandi ijrosi, O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi vazirining 12.06.2023 yildagi 153-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan ShNQ 2.07.01-03* ning 19-ilovasi ijrolarining ta’minlanishi buyurtmachi, pudratchi, loyiha tashkiloti va binoni qabul qilish komissiyasisi zimmasidadir.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini inobatga olgan holda **" Ajratilgan yer maydonida oshxona, kafelar, savdo uylari binolarini loyihalash"** obyektining loyiha-smeta hujjatlari kelgusida ko'rib chiqishga va kelishishga tavsiya etiladi.

7.2. Obyekt qurilish qiymati buyurtmachining o’z mablag’lari hisobidan bajarilayotganligi sababli ushbu ekspert xulosasi kelgusida bank kreditlari rasmiylashtirish uchun asos bo’la olmaydi.

Bosh ekspert: Amonov Javoxir Muxammadjon O‘g‘li.

Ishtirokchi ekspertlar: Abduramanov Nazim Xxx, Ayubov Rustam Xamitovich, Turayev Shoxrux Ilxomovich, Xakimov Olimjon Kamiljanovich, Nazarkasimova Feruza Muxamadaliyevna, Maxmudov Bobir Inatulla O‘g‘li, Memetov Reshat Medjitovich, Amonov Javoxir Muxammadjon O‘g‘li